

EKOLOGIYA SOHASIDAGI JINOYATLARNING  
KRIMINOLOGIK TAVSIFLANISHI

УГОЛОВНОЕ ОПИСАНИЕ ПРЕСТУПЛЕНИЙ В ОБЛАСТИ ЭКОЛОГИИ  
CRIMINAL DESCRIPTION OF CRIMES IN THE FIELD OF ECOLOGY

*Madrimov Raximboy G'ulomjon o'g'li*

*O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti  
mustaqil izlanuvchisi, katta leytenant*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada ekologiya sohasidagi jinoyatlarning kriminologik tavsiflanishi, ularning sodir etilish sabablari va shart-sharoitlari, ekologik jinoyatchilikning zamonaviy ko'rinishlari hamda jamiyat va atrof-muhitga salbiy ta'siri tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Ekologik jinoyatlar, ekologik xavfsizlik, kriminologik tavsif, atrof-muhitni muhofaza qilish, jinoyatchilik sabablari, ekologik huquqbuzarliklar, profilaktika, tabiiy resurslar, ekologik nazorat.

**Аннотация:** В данной статье анализируется криминологическое описание экологических преступлений, причины и условия их совершения, современные проявления экологических преступлений и их негативное воздействие на общество и окружающую среду.

**Ключевые слова:** Экологические преступления, экологическая безопасность, криминологическое описание, охрана окружающей среды, причины преступлений, экологические правонарушения, профилактика, природные ресурсы, экологический контроль.

**Annotation:** This article analyzes the criminological description of environmental crimes, the causes and conditions of their commission, modern manifestations of environmental crime, and their negative impact on society and the environment.

**Keywords:** Environmental crimes, environmental safety, criminological description, environmental protection, causes of crime, environmental offenses, prevention, natural resources, environmental control.

Globalashuv jarayonining yuqori suratlarda jadallashuvi ko'plab lokal, regional va global ekologik tizimlar inqiroziga sabab bo'lmoqda. Kundan-kunga o'simlik va hayvonlarning ko'plab turlari kamayib yoki butunlay yo'q bo'lib ketmoqda. Iqlim o'zgarishi, muzliklarning erishi, tuproq yemirilishi, o'rmonlarning yo'qolib borishi, yer yuzida haroratning ko'tarilishi, ichimlik suvi tanqisligi, oziq-ovqat yetishmovchiligi, turli yuqumli kasalliklarning tarqalishi kabi ofatlar bugungi kunda

insoniyatni jiddiy tashvishga solmoqda.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yildagi Farmonida keltirib o‘tilgan 66-maqsadda ham ayni shu masalaga alohida to‘xtalib, respublikada ekologik vaziyatni tubdan yaxshilash, inson hayotiga ta‘sir o‘tkazuvchi ekologik muammolarni bartaraf etish masadida shaharlar, tuman markazlari va shaharchalarda yashillik darajasini 30 foizga yetkazish, 14 ta ekologik toza hudud rejimini joriy qilish, shuningdek atrof-muhitga ta‘sir xavfi yuqori darajadagi (I toifa) obyektlarning ifloslantiruvchi manbalaridan avtomatik ravishda namunalar olish tizimi bilan 50 foiz qamrovini ta‘minlash ishlari zaruriy samaradorlik ko‘rsatkichlari sifatida bayon etilgan.[1]

Bundan ko‘rinib turibdiki, ekologiya sohasidagi jinoyatlar o‘zining ko‘p qirrali va uzoq muddatli salbiy oqibatlari bilan alohida xavflilik darajasiga ega bo‘lib, ular nafaqat alohida shaxslar manfaatlariga, balki butun jamiyat, kelajak avlodlar va atrof tabiiy muhit barqarorligiga jiddiy tahdid soladi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlar — bu atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan ijtimoiy munosabatlarga tajovuz qiluvchi, jinoyat qonunchiligida nazarda tutilgan ijtimoiy xavfli, aybli va jazoga sazovor qilmishlardir. Mazkur jinoyatlar ekologik muvozanatni buzish, inson salomatligi va hayotiga zarar yetkazish, biologik xilma-xillikni kamaytirish hamda tabiiy resurslar degradatsiyasiga olib kelishi bilan tavsiflanadi.

Ekologiya sohasidagi jinoyatlarning huquqiy tushunchasi, avvalo, milliy va xalqaro huquq normalariga tayanadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 49-moddasiga[2] ko‘ra, har kim qulay atrof-muhitga, uning holati to‘g‘risidagi ishonchli axborotga ega bo‘lish huquqiga ega. Ushbu moddaning ikkinchi qismida esa, davlat fuqarolarning ekologik huquqlarini ta‘minlash va atrof-muhitga zararli ta‘sir ko‘rsatilishiga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida shaharsozlik faoliyati sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratishi belgilangan. Davlat barqaror rivojlanish prinsipiga muvofiq, atrof-muhitni yaxshilash, tiklash va muhofaza qilish, ekologik muvozanatni saqlash bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi.

Aytish mumkinki, mazkur konstitutsiyaviy qoida ekologik xavfsizlikni ta‘minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri ekanligini anglatadi va ekologik jinoyatlarni kriminalizatsiya qilishning konstitutsiyaviy asosini yaratadi.

Ekologik jinoyatlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoyat-huquqiy normalarda belgilangan bo‘lib, ular O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining maxsus qismida[4] alohida bobda nazarda tutilgan. Xususan, atrof-muhitni ifloslantirish, yer, suv va havodan foydalanish qoidalarini buzish, o‘rmonlarni noqonuniy kesish, hayvonot va o‘simlik dunyosini muhofaza qilish qoidalarini buzish kabi qilmishlar jinoyat sifatida kvalifikatsiya qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining[3] to‘rtinchi bo‘limi ekologiya sohasidagi jinoyatlarga qaratilgan bo‘lib, 193-204-moddalarni o‘z ichiga oladi. Ushbu huquqbuzarliklar, asosan ekologiya xavfsizligiga oid normalar va talablarni buzish, Atrof tabiiy muhitning ifloslanganligi to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qasddan yashirish yoki buzib ko‘rsatish, shuningdek foydali qazilmalar, yer, suv, havo bilan bog‘liq boshqa turdagi jinoyatlarni o‘z ichiga oladi.

Ayrim adabiyotlarda[5] esa, ekologik jinoyatlar - bu tabiiy muhitga, shuningdek, uni muhofaza qilish va tiklash bilan bog‘liq turli munosabatlarga tajovuz qiluvchi jinoiy javobgarlikka tortiladigan xatti-harakatlar ekanligi, shuningdek atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazish yo‘l harakati xavfsizligi qoidalarini va temir yo‘l, havo va suv transportidan foydalanishni buzish, atom energiyasi inshootlarida xavfsizlik qoidalarini buzish, radioaktiv materiallar bilan noqonuniy muomala qilish va ba’zi hollarda bezorilik natijasida ham kelib chiqishi mumkinligi aytiladi. BMT ham ekologik jinoyatlarni, shu jumladan uning boshqa jinoyat turlari bilan aloqalarini rivojlanish, global barqarorlik va xalqaro xavfsizlik uchun jiddiy va tobora ortib borayotgan xavf deb biladi.[6]

Umuman olganda, atrof tabiiy muhit – o‘zaro aloqadorlikda bo‘lgan tabiiy obyektlar, jumladan (havo, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi va shu kabi obyektlarning yig‘indisi hisoblanadi. Mazkur huquq sohasining obyektiv tomonidagi jinoyat sanoat, energetika, transport, kommunal xizmat, agrosanoat, ilm-fan obyektlari yoki boshqa obyektlarni loyihalash, joylashtirish, qurish va ishga tushirib foydalanish normalari va qoidalarining buzilishida yoxud davlat komissiyalarining a‘zolari tomonidan bu obyektlarning normativ hujjatlarda belgilangan qoidalarni buzib qabul qilinishi insonning o‘limi, odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, ekologiyaga salbiy ta‘sir qiladigan darajada atrof muhitning o‘zgarib ketishiga yoki boshqacha og‘ir oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lishida ifodalanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini moddama-modda sharhlaganda bu jinoyatning tarkibi mana bunday tavsiflanadi: “Bu jinoyat turi atrof tabiiy muhitga xavf soluvchi yoki aniq zarar yetkazuvchi ekologik jinoyatlarga tegishlidir... subyektiv tomondan to‘g‘ri yoki egri qasd orqali sodir etiladigan aybning qasd shakli bilan xarakterlanadi. Shaxs sodir etayotgan hatti-harakatining o‘simlik va hayvonot dunyosini ko‘p miqdorda yo‘q qilish, atmosfera havosi yoki suv resurslarini zaharlashga qaratilgan ijtimoiy xavfliligini biladi, muhofaza etiladigan obyektga zarar yetkazish xavfi mavjudligi bo‘lgan boshqa harakatlarning xavfliligini biladi, ekologik talofat kelib chiqishini hohlaydi yoxud bilib turib shunga yo‘l qo‘yadi”.[7]

Yana boshqa olimlar bu masalaga boshqacha yondashganlar. Ya‘ni, ekologiya sohasidagi jinoyatlar – bu jinoyat qonunida jazo qo‘llash tahdidi bilan taqiqlangan, zarar keltiradigan yoki atrof-muhitni muhofaza qilish obyektlariga va/yoki inson salomatligiga zarar yetkazish xavfini keltirib chiqaradigan aybli ijtimoiy xavfli qilmish

(harakat, harakatsizlik).[8]

Z.M. Annayeva ham bu masalaga umumiy yondashgan bo‘lib, uning fikriga ko‘ra, ... ekologik muammolar nafaqat bizning mintaqamizda, balki butun dunyoda dolzarb hisoblanadi. Insoniyatning kelajagi ushbu muammolarning nechog‘liq tezlik va hamkorlikda bartaraf qilinishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Zero, ushbu muammo chegara bilmasligi, millat, xalq, davlat tanlamasligi haqiqat. Shunday ekan, ekologik muammolarni ayrim davlatlarga emas, butun jahon hamjamiyati birgalikda bartaraf etishi lozim.[9]

Bizningcha, bu yo‘nalishdagi jinoyatlar o‘zining turli ko‘rinishga ega ekanligi bilan boshqa turdagi jinoyatlardan bir muncha farq qilib, bu borada M.X. Rustambayevning fikrlariga qo‘shilish mumkin. Xususan, hayvonot dunyosi bilan bog‘liq jinoyatlar brakonerlik, noqonuniy ov qilish, hayvonot dunyosi kontrabandasi kabi huquqbuzarliklar ushbu turdagi jinoyatlarning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Ilmiy qarashlarimizga tayanadigan bo‘lsak, bunday jinoyatlar “taklif zanjiri” bo‘yicha (ovchi–vositachi–logistika–bozor) uyushgan shaklga o‘tadi. Ya‘ni alohida brakonerlikdan ko‘ra, tashkillashtirilgan tarmoqlar xavfliroq. Bu esa, ma‘lumotlarda musodara statistikasi real bozor hajmini to‘liq ifodalay olmasligi, biroq qaysi turlar nishonda, qaysi yo‘nalishlar kuchayayotganligini bilan ta‘kidlanadi.

Bu turdagi jinoyatlarning yana bir turi – bu suv va suv resurslari bilan bog‘liq huquqbuzarliklar bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasida bu yo‘nilishda sodir etilayotgan jinoyatlar salmog‘i kam emas. Misol uchun, 2000-yillarning o‘zida respublikamizda bu masala yuzasidan allaqachon “statistik chaqiriq”lar e‘lon qilingan. Unga ko‘ra, Markaziy Osiyo mintaqasida XXI asrdagi eng katta muammolardan biri suv resurslari taqchilligi bo‘lishi mumkin. Suv resurslari ta‘minoti bo‘yicha O‘zbekiston eng noqulay hududda joylashgan. Masalan, Sirdaryoning bir yillik suv oqimi  $37,9 \text{ km}^3$  ni tashkil etadi. Bu suvning  $28,0 \text{ km}^3$  (73,8 foizi) Qirg‘iziston hududida,  $5,59 \text{ km}^3$  (14,8 foizi) O‘zbekiston hududida,  $4,08 \text{ km}^3$  (10,8 foizi) Qozog‘iston hududida shakllanadi. Amudaryo suvining bir yillik miqdori  $78 \text{ km}^3$  ni tashkil etib, uning  $62,9 \text{ km}^3$  (80 foizi) Tojikiston hududida,  $4,7 \text{ km}^3$  (6 foizi) esa O‘zbekiston hududida shakllanadi. Ko‘rinib turibdiki, suv resurslari shakllanish nuqtalari asosan qo‘shni davlatlar hududlarida joylashgan. Bu esa, O‘zbekiston Respublikasining suvga bo‘lgan ehtiyojini qondirishda muayyan muammolarni keltirib chiqarmoqda.[10]

Bizning fikrimizcha, muammo faqat suv hajmining kamayishida emas, balki suvdan foydalanish samaradorligining pastligidadir. Respublikamizda qishloq xo‘jaligida suvning katta qismi yo‘qotilmoqda, eski kanallar va ochiq irrigatsiya tizimlari suv isrofini oshirmoqda. Shuning uchun biz suvni tejash texnologiyalarini joriy etishni milliy ustuvor vazifaga aylantirishimiz zarur. Bundan tashqari, biz suv masalasini ekologik jinoyatlar bilan ham bog‘lashimiz o‘rinlidir. Noqonuniy suv olish, suv havzalarini ifloslantirish, gidrotexnik inshootlarga zarar yetkazish kabi harakatlar

kelajakda suv tanqisligini yanada keskinlashtiradi. Shu bois suv resurslarini muhofaza qilish bo'yicha javobgarlikni kuchaytirish ham dolzarb hisoblanadi.

Suvga nisbatan davlat mulkchiligi o'rnatilganligi sababli unga nisbatan korxonalar, muassasa, tashkilotlar, mansabdor shaxslar yoki fuqarolar turli xil bitimlar – oldi-sotdi, hadya, sovg'a, o'zboshimchalik bilan ayirboshlash, garov kabi shartnomalarni to'zishlari mumkin emas. Ushbu xildagi shartnomalarni tuzgan yuridik va jismoniy shaxslar suv huquqbuzarligini sodir etgan hisoblanadi. Suv qonunchiligida esa, navbatdagi huquqbuzarlik turi – bu suv obyektlarini o'zboshimchalik bilan egallab olish yoki suvdan o'zboshimchalik bilan foydalanishdir. Suv kodeksiga ko'ra, suv obyektlari foydalanish uchun maxsus foydalanish ruxsatnomasi rasmiylashtirilgan holda beriladi.

Suvdan foydalanish limitlarini buzgan holda suv olish alohida suv huquqbuzarligi turlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi Suv kodeksiga binoan, suvdan foydalanuvchilarning barchasiga nisbatan suvdan limit bo'yicha foydalanish tartibi belgilanadi. Bu boradagi navbatdagi jinoyatlardan biri suv daryolarni bulg'ash va ifloslantirishdir. Bu huquqbuzarlik korxonalar, muassasa va tashkilotlar tomonidan sanoat chiqindilarini, oqova suvlarni, ishlab chiqarish chiqitlarini suvga oqizish yo'li bilan sodir etiladi. Ushbu huquqbuzarlik subektlari ko'pincha korxonalar, muassasa, tashkilot rahbarlari, mansabdor shaxslar bo'ladilar. Ular tabiatni muhofaza qilish talablariga rioya qilmasdan daryolarni har xil chiqindilar bilan ifloslantirishga sababchi bo'ladilar.

Keyingi yo'nalish o'rmon xo'jaligi bilan bog'liq jinoyatlar bo'lib, bu kabi huquqbuzarliklar, asosan noqonuniy daraxt kesish, o'rmon fondiga zarar yetkazish va boshqa turdosh g'ayriqonuniy hatti-harakatlar bilan tavsiflanadi. Noqonuniy daraxt kesish va yog'och mahsulotlari kontrabandasi ko'pincha korrupsiya va soxta hujjatlar bilan bog'lanadi. Xalqaro jinoyat politsiyasi (INTERPOL) materiallarida o'rmon jinoyatlarining iqtisodiy "qora bozor" qiymati o'nlab milliard dollarlardan yuzlab milliardgacha baholanishi qayd etiladi.[11]

BMT ning 2024-yilda e'lon qilgan hayvonot dunyosiga qarshi qaratilgan jinoyatlar hisobotida 2015-2021-yillarda 162 ta davlat va hududda yovvoyi tabiatga oid noqonuniy savdo bo'yicha musodara (seizure) ma'lumotlari qayd etilgani ko'rsatiladi. Ilmiy qarashlarga ko'ra, bunday jinoyatlar "taklif zanjiri" bo'yicha (ovchi–vositachi–logistika–bozor) uyushgan shaklga o'tadi. Ya'ni alohida brakonerlikdan ko'ra tashkillashtirilgan tarmoqlar xavfliroq. Hisobotlarda musodara statistikasi real bozor hajmini to'liq bermasligi, biroq trendlar (qaysi turlar nishonda, qaysi yo'nalishlar kuchaymoqda)ni yaxshi ko'rsatishi ta'kidlanadi. Natijada ekologik zarar (bioturlar kamayishi), sanitariya-xavfsizlik xatarlar (zoonozlar), hamda iqtisodiy yo'qotishlar bir paytda yuzaga keladi. Kriminolog olim A.I.Dolgovaning Uning fikricha, o'rmon bilan bog'liq jinoyatlar ko'pincha yashirin tarzda, nazorat sust

hududlarda sodir etiladi.[12]

**Ekotizimning asosiy qismlaridan biri bo'lgan hayvonot dunyosiga qarshi qaratilgan jinoyatlar ham biz tadqiq etayotgan obyektlardan biridir. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 202-moddasi hayvonot yoki o'simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzishga bag'ishlangan bo'lib, Ovchilik, baliqchilik yoki hayvonot dunyosining boshqa turlarini ushlab qoidalarini buzish, noyob hayvonlarni tutishning belgilangan tartibi yoki shartlarini shuningdek muhofaza etiladigan tabiiy hududlardagi hayvonot olamidan foydalanish tartibini buzganlik uchun jinoiy jazo choralarini belgilaydi.**

Qishloq va o'rmon xo'jaligida agroximikatlardan foydalanishning yo'l qo'yiladigan meyorlari nisbatan yangi ekologik meyorlar bo'lib, muqaddam mineral o'g'itlar va agroximikatlardan foydalanishda ekologik omillar emas, balki faqatgina iqtisodiy ehtiyojlar inobatga olingan. O'zbekiston Respublikasi "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunining[13] ekologik normativlarni ishlab chiqish va tasdiqlash deb nomlangan 15-moddasiga ko'ra, kimyoviy dori-darmonlarni qishloq xo'jaligida ishlatishga qonun hujjatlariga muvofiq ruxsat etiladi.

Ekologik meyorlash davlat organlarining atrof tabiiy muhitning sifati, tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni belgilash bo'yicha faoliyati bo'lib, bu faoliyat sertifikatlashtirish, standartlashtirish va boshqa meyorlarni belgilashda namoyon bo'ladi. Ekologik meyorlashda chegara sifatida atrof tabiiy muhit va uning obyektlariga zararli ta'sir darajasi hisoblanadi. Ekologik meyorlashda yo'l qo'yiladigan darajadagi meyor ishlatilib, shu orqali atrof tabiiy muhitga ta'sir ko'rsatishning eng yuqori darajasi belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan nazariy va huquqiy tahlillar ekologiya sohasidagi jinoyatlarning mazmun-mohiyatini, ularning turlarini hamda yuridik tavsifini yanada chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur yondashuvlar asosida quyidagi yakuniy ilmiy xulosalar va huquqiy ta'riflarni shakllantirish mumkin:

*Birinchidan*, ekologiya sohasidagi jinoyatlar jamiyatning ekologik xavfsizligiga tajovuz qiluvchi, ko'p tarmoqli va murakkab ijtimoiy-huquqiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ularning o'ziga xosligi shundaki, yetkazilgan zarar ko'pincha bevosita emas, balki bilvosita va uzoq muddatli oqibatlarda namoyon bo'ladi. Shu sababli bunday jinoyatlarni aniqlash va baholashda kompleks yondashuv zarur.

*Ikkinchidan*, ekologik jinoyatlarning turlari tabiiy resurslarga yetkazilgan zarar obyektiga qarab farqlanadi (yer, suv, atmosfera, o'rmon, hayvonot va boshqalar). Bu esa ularni klassifikatsiya qilishda tizimli yondashuvni talab etadi. Har bir tur o'ziga xos kriminalistik belgilar va isbotlash xususiyatlariga ega bo'lib, alohida metodik yondashuvni talab qiladi.

*Uchinchidan*, ekologik jinoyatlarning yuridik tavsifi jinoyat tarkibining barcha elementlari (obyekt, obyektiv tomon, subekt, subyektiv tomon) orqali ifodalanadi,

biroq ularning asosiy xususiyati maxsus obyekt — atrof tabiiy muhit va ekologik xavfsizlik bilan bog‘liqligidadir. Shu bois ushbu jinoyatlarni kvalifikatsiya qilishda maxsus bilim va ilmiy asoslangan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

Demak, *ekologik jinoyat* — bu atrof tabiiy muhitga, tabiiy resurslarga yoki ekologik xavfsizlikka zarar yetkazuvchi, qonun bilan taqiqlangan va jinoiy javobgarlikka sabab bo‘luvchi ijtimoiy xavfli qilmishdir.

*Ekologik xavfsizlik* esa, inson, jamiyat va davlatning atrof tabiiy muhitning salbiy ta’sirlaridan himoyalanganlik holati bo‘lib, u tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik muvozanatni saqlash orqali ta’minlanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2026-yildagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-21-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/8050769>
2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. 49-modda. 1-2-qismlar // <https://lex.uz/docs/6445145>
3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // <https://www.lex.uz/acts/111453>
4. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi // <https://lex.uz/docs/111453>
5. Александров А. Ответственность за экологические правонарушения. Учебник, -М.: 2018 г.
6. UNICRI “Transnational threat of environmental crimes” // <https://www.unicri.org/environmental-crimes>
7. Рустамбаев М.Х. Комментарий к Уголовному кодексу Республики Узбекистан. -Т.: Адолат, 2014, с. 740-741
8. Utemuratova S.SH., Ekologiya sohasidagi jinoyatlar tushunchasini shakllantirishning muhim jihatlari // Eurasian journal of law, finance and applied sciences, 4(6), 15-18, 2024.
9. Annayeva Z.M. Ekologik muammolar va uning insoniyat hayotiga tahdidi. 2022 yil. 479-bet.
10. To‘xtayev A.S. Ekologiya. -Toshkent.: O‘qituvchi, 2001. 144-b.
11. UNT Digital Library. Green Carbon, Black Trade: Illegal Logging, Tax Fraud and Laundering in the World's Tropical Forests // <https://digital.library.unt.edu>
12. Долгова А.И. Криминология. — Москва: “Норма”, 2005 // Преступность, её организованность и криминальное общество. — Москва: “Норма”, 2013.
13. O‘zbekiston Respublikasining “Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi N 754-XII-son qonuni. 09.12.1992-yil // <https://nrm.uz>